

ARABCHA IBORALARNING O'ZBEK TILIDA BERISH VOSITALARI

WAYS TO TRANSLATE ARABIC PHRASES IN UZBEK LANGUAGE

СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА АРАБСКИХ ФРАЗ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Sunnat Botirovich Abdunabiev

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi**Toshkent, O'zbekiston**sabdunabiev@uwed.uz*

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilidagi iboralar, maqol va matallarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida qo'llaniladigan asosiy usullar tahlil qilinadi. Arab va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik, uslubiy hamda milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Tarjimada ekvivalent, muqobil variant va tavsifiy tarjima usullarining o'rni yoritilib, badiiy hamda diniy matnlar tarjimasidan misollar keltiriladi. Tadqiqot natijasida arabcha iboralarni o'zbek tiliga adekvat tarjima qilishda milliy-madaniy omillar va kontekstning muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: arab tili, o'zbek tili, tarjimashunoslik, frazeologik birlik, maqol, matal, ibora, ekvivalent tarjima, muqobil variant, badiiy tarjima.

Abstract. This article examines the main methods of translating Arabic phrases, proverbs, and idiomatic expressions into Uzbek. The semantic, stylistic, and cultural features of phraseological units in Arabic and Uzbek are analyzed from a comparative perspective. Particular attention is paid to the use of equivalent translation, alternative variants, and descriptive translation strategies. Examples from literary and religious texts are provided to illustrate translation challenges and solutions. The study concludes that cultural context and national linguistic characteristics play a crucial role in achieving adequate translation of Arabic phraseological expressions into Uzbek.

Keywords: Arabic language, Uzbek language, translation studies, phraseological unit, proverb, idiom, equivalent translation, alternative translation, literary translation, intercultural communication.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные способы перевода арабских фразеологизмов, пословиц и устойчивых выражений на узбекский язык. Проводится сравнительный анализ семантических, стилистических и национально-культурных особенностей фразеологических единиц арабского и узбекского языков. Особое внимание уделяется эквивалентному переводу, использованию вариантных соответствий и описательному способу передачи значения. На основе примеров из художественных и религиозных текстов раскрываются основные трудности и пути их преодоления в процессе перевода. В результате исследования

установлено, что при переводе арабских фразеологических единиц на узбекский язык важную роль играют культурный контекст и национально-языковые особенности.

Ключевые слова: арабский язык, узбекский язык, переводоведение, фразеологическая единица, пословица, поговорка, идиома, эквивалентный перевод, вариантное соответствие, художественный перевод.

Kirish

Badiiy tarjimaning asl nusxani badiiy aks ettirishning shakli ekanligi, o'quvchiga asliyatni imkon qadar to'la va chuqur bilish imkoniyatini bera oladigan bo'lishi, kitobxon tarjimani o'qib, asliyat haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Buning uchun tarjimada asarning umumiy mazmunini to'g'ri berib qo'yishgina kifoya qilmaydi. Tarjimon tarjima qilinyotgan asarning o'ziga xosligini, yozuvchi yoki shoirning individual uslubini ham bera olishi kerak. Masalan, o'zbekcha asar arab tiliga tarjima qilinar ekan, tarjimada asarlarni chuqur mazmuni, obrazlarning takrorlanmas individualligi, ularning badiiy ta'sir kuchi, yurakda iz qoldiruvchi lirizm bilan sug'orilgan uslub saqlanmagan bo'lsa, bunday tarjima arab o'quvchisiga o'zbek qahramoni, agar asar she'riy bo'lsa lirik qahramonning qiyofasini ochib bera olmaydi. O'quvchi shoir yoki yozuvchining badiiy mahoratini ko'ra olmaydi, asardan ta'sirlanmaydi.

Asosiy qism

O'rta Osiyodagi boshqa bir yondosh xalq, uzoq asrlardan buyon birgalikda yashab kelayotgan, mushtarak madaniyat, tarix, adabiyot yaratgan tojiklarning tili hind-evropa tillarining eron turkumiga mansub. Tojiklar bilan O'zbeklarning lug'atida nihoyatda ko'p o'xshashliklar bor. Misollarga murojaat qilaylik:

ان للحيطان أذانا - *“devorning qulog'i bor”*

كَمَا تَزْرَعُ تَحْصُدُ - *“Nima eksang shuni urasan”*

رَأْسُ الدِّينِ الْمَعْرِفَةُ - *Madaniyatning (din) o'chog'i bilimdir.*

Yuqorida keltirilgan sharqiy arabcha iboralarining barchasi badaviylarga xos bo'lsa, g'arbiy arab iboralarida qadim davrlardanok shaharlarga xoslari ko'p uchraydi. Misol tariqasida Makka, ahli orasida mashhur bo'lgan attor Manshim ismli ayol nomi tilga olingan quyidagi maqolni keltirishimiz mumkin: **أَمْسِكْ عَلَيْكَ**

نَفَقَتِكَ - *Tejog'luni ishi bejog'lu* [2].

Keyinchalik, islom hududining jo'g'rofiy kengayishi oqibatida ushbu mintaqalarda yashaydigan xalqlarga xos bo'lgan yangidan-yangi iboralar paydo bo'la boshladi. Bularning ko'pchilik qismi shahar iboralar edi. Bu davrda qator xalqlarning, asosan, Markaziy Osiyo xalqlarining iboralar arab tiliga tarjima qilinib, ular qisqacha qilib «al-muvallad» (qo'shilgan, ko'chirilgan) deb nomlana boshlagan (hozirda ko'pgina Yevropa xalqlari qo'llayotgan «mulat» so'zi aslida «muvallad» so'zidan kelib chiqqan).

Arablarda zakiiy, «nishondor» so'z qadimdan qadrlangan. Mufaddal Dabbiy, Xamza Isfaxoniy va az-Zamaxshariylarning to'plamlari islomga qadar yaratilgan minglab maqol va iboralar haqida tushuncha beradi. «*Bu ishda menga na tuya va na butaloqcha foydam bor*» kabi iboralar, albatta, islomga qadar yashagan badaviylar tilidan aytilgan. Qadimgi

arab maqol va iboralarini ikki guruhga bo'lish mumkin: sharqiy (Iroq, Baxreyn, Ummon, Xadramaut, Naj) va g'arbiy (Xijoz va Yaman). Sharqiy arab maqollariga misol tariqasida Mufaddal Dabbiy to'plamida keltirib o'tilgan hozirda ham mashhur maqol va iboralarni keltirish mumkin:

«Semizlikni qo'y ko'taradi» – «الْخَرْسُ سَمِنَ حَتَّى صَارَ كَأَنَّهُ»;

«Sukut alomati rizo» – «السُّكُوتُ أَخُو الرِّضَا»;

«سمع فحيع الافاعي تحت الأرض [9, 338] Yer tagida ilon vishillaganini eshitdi.

O'zbek tilida: «Yer tagida ilon qimirlasa biladi».

- سُرِقَ السَّارِقُ فَأَنْتَحَرَ O'g'rini qaroqchi urdi va u (mana shu ish deb) o'z joniga qasd qildi. O'zbek tilida esa: «Burgaga achchiq qilib ko'rpa kuydirish».

اسْتَعْنِ أَوْ مِتْ Bo'lsang mustaqil bo'l yoki o'l.

اسْمَعْ وَلَا تُصَدِّقْ «Eshit, lekin ishonma».

- يَضْمَحِلُّ لِلْبَاطِلِ جَوْلَةٌ ثَمَّ - Yolg'on (noxaqlik) ba'zida g'olib kelishi mumkin, biroq oxir oqibat xaqiqat qaror topadi. «Yolg'on» tezda yuzaga chiqadigan narsa ya'ni yolg'onning umri qisqa.

Badiiy tarjimani san'at va adabiyot zargarlari yakdillik bilan "oltin ko'prik" deb ta'rif etadilar. Bu ta'rifda chuqur ma'no bor. Chunki har bir xalqning adabiyoti shu xalq hayoti, taqdiri, qalbining haqiqiy ko'zgusi, orzu-intilishlarining yorqin in'ikosidir. Binobarin, badiiy tarjimaning oltin ko'prigida xalqlar o'zaro qalb boyliklarini, ma'naviy intilishlarini bir-birlariga samimiy oshkor etadilar. Badiiy tarjima xalqlarni ichdan yaqinlashtiradi, ulug' va pok maqsadlar, ideallar uchun kurashda ularni bir safga jipslashtiradi, hamnafaslikni mustahkamlaydi. [10, 176]

TARJIMASHUNOS OLIMA BEGOYIM XOLBEKOVA
"SHE'RIY TARJIMA MEZONI" MAQOLASIDA SHUNDAY
YOZADI: "BEVOSITA TARJIMANING MUHIM
MASALALARIDAN BIRI ASLIYAT TILIDAGI BADIY
KOMPONENTLARNI, TOPILDIQLARNI TARJIMA
QILINAYOGAN TILDA QAYTA YARATISHDIR. HAR BIR
XALQNING URF-ODATI, TURMUSH TARZI, AN'ANALARI,
MADANIYATI- MA'NAVIYATI, IQLIM VA GEOGRAFIK
JOYLASHUVIDAN KELIB CHIQIB, UNING QARASHLARI,
MUQOYASA QILISHI VA O'XSHATISHLARI HAM TURLICHA
BO'LADI. MANA SHU "TURLICHALIK" HAR SAFAR HAM
TARJIMON OLDIGA MURAKKAB MUAMMOLARNI QO'YADI,
UNDAN MASALAGA IJODIY YONDASHISHNI, MATNGA
BO'LGAN MUNOSABATDA XUSHYORLIKNI TALAB ETADI".
[11, 157-160]

Tarjimaning asliyatdan uzoqlashib ketishi hollari xususida tarjimashunos olim Q.Musayev shunday yozadi: "Frazologik birliklar ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan uygun birliklar orqali emas, balki erkin ma'nodagi leksik birliklar orqali o'girilganda, leksik birliklar aksariyat ko'p ma'noli bo'lganliklari uchun asarni o'girayotgan tarjimon birlikni kerakli ma'nosida emas, balki boshqa ma'noda tushunib, o'z tiliga o'girishi,

natijada tarjima asliyatdan butunlay uzoqlashib ketishi hollari ham sodir bo'ladi." [4, 11]

Yuqoridagi bebaho fikrlarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, qardosh til bilan ish ko'rganda ham, qardosh bo'lmagan tillarga murojaat etganda ham tarjimaning qoidasi bitta: asl nusxani boshqa tilga o'tkazib - qayta yaratish. [6, 66-67] Tillarning genetik qardoshligi, grammatik qurilishi nuqtai nazaridan uzoq-yaqinligi, ekstralingvistik omillarning tarjima bo'lish yo tarjima bo'lmaslik problemasiga munosabati mavzunini o'rganishda tarjima ustalarining fikrini bilish juda muhimdir.

O'zbek va arab tillarida so'zlovchilarning diniy qarashlari, turmush sharoitlari o'xshashligi tufayli lafzlaridagi ko'pgina frazeologik birliklar bir-birlariga o'xshash bo'lib, ularning aksariyati bir xil manbalar asosida vujudga kelgan.

Frazeologik ekvivalentlar ayrim holatlarda bir-birlarining o'rnini bosa olmaydi. Ko'p ma'noli ikki til frazeologik birliklarining ayrim ma'no va uslubiy vazifalari o'xshasa-da, ba'zilar farg kiladi. Masalan, bir-biriga ham moddiy, ham ma'no va uslubiy vazifa jihatdan o'xshash bo'lgan bir arabcha matal doim bir xil ma'no va uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilishlari mumkin. Jahonning ko'pchilik tillarida uchraydigan baynalmilal xususiyatga ega bo'lgan maqol kabi qo'llanuvchi «Temirni kizig'ida bos!» iborasi arab tilida har bir ishni o'z vaqtida bajarish lozimligini ifodalovchi maqol qimmatiga ega bo'lgan أَطْرُقَ الْحَدِيدَ وَهُوَ سَاخِنٌ iborasi o'zbek tilidagi aynan "Temirni qizig'ida bosmoq" iborasiga ("Temirni qizig'ida bos!" - maqol) to'la mos keladi.

Qiyoslanayotgan tillar frazeologik ekvivalentlarining ayrimlari bir-biriga barcha jihatlar bilan o'xshasa-da, ba'zan matn sharoiti tarjimada asliyatdagi birlikka mos lisoniy vositadan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Bu goho tarixiy taraqqiyot natijasida ma'no o'zgarishiga yuz tutgan ko'pma'noli tillararo ekvivalentlarga taalluqlidir. Masalan, o'zbekcha «qo'rqoq oldin musht ko'tarar» matali (عَصَا الْجَبَانِ أَطْوَلُ) o'zbek va arab tillarida «bir aybi bo'lgan kishi har doim o'zini oldindan himoya qilishga harakat qiladi» ma'nosini ifoda etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida ko'pchilik o'zbekcha maqollarning arab tilida muqobillari borligi, shunga qaramay, bu ikki xalq diniy o'xshashligi bo'lishiga qaramay, ularning maqol va matallarida o'xshamaydigan jihatlar ham bor ekanligi, tilda qo'llanib kelayotgan ba'zi iboralarning muqobillari mavjud emasligi ayon bo'ladi.

Tarjimon, birinchi navbatda, asliyatdagi so'zlarning badiiy, uslubiy, milliy va estetik vazifasini hisobga olishi, so'zning ma'nosiga diqqat qilishi darkor. Tarjimada so'zlarni aynan "ko'chirish" yoki uni tushirib qoldirish mantiqiy uzviylik hamda badiyatga putur yetkazadi.

Bir tildagi frazeologik iboralarni ikkinchi tilga ekvivalent yordamida tarjima qilishning iloji bo'lmaganda, ya'ni tarjima tilida asliyatdagi iboraga mos ekvivalent topilmaganda, tarjimon muqobil variantlarga murojaat qiladi. Chunki, ko'pincha iboralarning boshqa tilda ekvivalenti bo'lmasa ham, u biron-bir muqobil variantlarga ega bo'lishi mumkin. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilinganda ekvivalent yordamida tarjima qilgandagiga nisbatan ham ko'proq ehtiyot bo'lish zarur. Chunki ikki til iboralari

yuzaki qaraganda ba'zan bir-biriga muqobilday ko'rinsa-da, aslida ular ma'no va stilistik funktsiya jihatlaridan bir-biridan farq qilishi, ya'ni bir-biriga soxta muqobil variantlar tashkil etishi mumkin. Bu, albatta, ko'proq ularning bir-biridan leksik tarkib jihatdan farq qilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, har tilda qator sinonimik iboralarni uchratamizki, ular ham ma'no yoki uslubiy vazifasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Binobarin, asliyat va tarjima tilidagi iboralarning ma'nolarini chuqur bilmasdan turib, ularni tarjima qilish ko'p hollarda asliyatda mujassamlashgan ma'noning tarjimada aks etmay qolishiga olib kelishi mumkin. Mutarjim asliyatdagi iborani to'g'ri tarjima qilish uchun tarjima tilidagi mavjud sinonimik iboralardan eng mosini tanlab olishi kerak. Ba'zan hatto bir-biriga juda yaqin tillarda ham bir xil ma'noda ishlatilgan iboralarning tuzilishi, shakli va obrazli asoslari butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. G'.Salomov faqat ma'nolari kontekst ichidagina bir-birining o'rnini qoplay oladigan iboralarni muqobil birikma deb hisoblaydi. "Ba'zan, deb ta'kidlaydi G'.Salomov, bir birikmaga ayni kontekst ichida bir emas, bir necha birikma muvofiq kelishi mumkin. Birikmaning muqobillari yoki muqobil variantlari faqat kontekst ichidagina bir-birini almashtira olar ekan, bunda ularning ma'nosi to'g'ri kelsa ham, ko'pincha shakllari va, ayniqsa, ob'ektlari muvofiq tushmaydi". [4, 267]

Tarjimalarni o'rganish orqali so'zma-so'z tarjima chegarasi, jumla qurilishi, she'riy tarjimalarda esa qofiya va radiflarni aynan saqlab qolish, tushunarsiz so'zlarga izoh berish me'yori, "aldog'chi so'zlar"ning ko'rinishlari kabi ko'plab masalalarga oydinlik kiritish mumkin.

Toshkent islom universiteti tadqiqotchisi N. Mullasodiqova "Klassik matnlarni tarjima qilish jarayonida uchraydigan muammolar va ularning yechimi" nomli maqolasida shunday yozadi: "Qur'on oyatlaridagi frazeologizmlarning o'zbek va rus til-lariga qilingan tarjimalarini qiyoslab ko'radigan bo'lsak, o'zbek tilida, rus tilida uchraydigan kabi so'zma-so'z tarjima berilmay, o'rniga xalq orasida turg'un iboraga aylangan ekvivalentlar bilan tarjima qilingani diqqatga sazovordir. Masalan: *قالت امرأة 9 فرعون قُرْتُ عَيْنٍ لِي وَلَكَ... (س. القصص، 9) (Fir'avning xotini (unga): "(Bu bola) men uchun ham sen uchun ham ko'z quvonchidir". [1, 386] (Qasas surasi, 9-oyat). Rus tiliga esa quyidagicha tarjima qilingan:*

Э. Кулиев: жена Фараона сказала: «Вот услада очей для меня и тебя».

Османов: жена сказала Фараону: «[Он будет] усладой очей для меня и тебя.

Крачковский: Я сказала жена Фараона: «Услада очей мне и тебе! ;

Порохова: Я вот жена его сказала: «Это - услада глаз и для тебя, и для меня.

Oyatdagi *قُرْتُ عَيْنٍ* iborasini so'zma-so'z tarjima qilinsa, "ko'zning salqinligi" degan ma'noni ifodalaydi, ammo o'zbek kitobxoniga "ko'zning salqinligi" tushunchasi noma'lum. Ayni shu ma'noni o'zbek tilida "ko'z quvonchi", "ko'z qorachig'i", "ko'z nuri" kabi iboralar bilan tarjima qilish juda o'rinlidir.

Yana bir misol: *يَوْمَ تَبْيَضُّ وُجُوهُهُ وَتَسْوَدُّ وُجُوهُهُ فَأَمَّا الَّذِينَ اسْوَدَّتْ وُجُوهُهُمْ أَ كَفَرْتُمْ بَعْدَ إِيمَانِكُمْ؟...أَمَّا الَّذِينَ ابْيَضَّتْ وُجُوهُهُمْ فَفِي رَحْمَةِ اللَّهِ. (س. آل عمران، 106-107)*

Ba'zi yuzlar oqaradigan va ba'zi yuzlar qorayadigan Kun (qiyomat)eslang: yuzi qorayganlarga: "imon keltirgandan so'ng yana kufrga qaytgan edingizlarmi?".... Yuzlari oqargan zotlar esa Allohning rahmati (jannati)dadilar (Oli Imron surasi. 106-107 oyat).

Yuqoridagi oyat tarjimasida esa gunohsiz odamlarni “yuzlari yorug’”, gunohga botgan, ya’ni jazoga mahkum qilinadiganlarni esa “yuzi qora” kabi terminlar bilan tarjima qilinishiga ham guvoh bo’lamiz. Bu kabi tarjimalarni boshqa oyatlarda ham uchratish mumkin: (س. الجبر، 97) *Shaksiz, Biz ularning (Sizni masxara qilib) aytayotgan so‘zlaridan dilingiz siqilishini bilurmiz!*

Oyatda يُضَيِّقُ so‘zini rus tilidagi tarjimalarda E.Kuliev va N.Osmanov “sjimaetsya”, Krachkovskiy I.Yu. va Poroxova esa “stesnyaetsya”, ya’ni “uyaladi” deb tarjima qilishgan. Lug‘atlarda esa “ضاق به قلبه” uning yuragi siqilib ketdi [12, 487] deb tarjima qilinishi ko‘rsatiladi.

Xulosa

Bayon qilingan mulohazalardan ma’lum bo’ladiki, tarjima ishi tarjimondan juda katta mas’uliyatni talab etadigan murakkab san’atdir. Shunday ekan bu ishni shoshma-shosharlik, befarqlik bilan amalga oshirish yaramaydi. Tarjimon tarjima ishiga kirishishdan avval shu tarjima qilinayotgan asarning tili, yozuvchining yozuvchilik uslubini chuqur o‘rganib chiqishi, to‘la tushungan bo‘lishi shart. Matnni haddan tashqari o‘zbekchalashtirib yoki arabchalashtirib yuborish asliyatning o‘ziga xosligini ko‘rsatishga xalaqit beradi. Asarning milliy xususiyatlarini saqlashga xizmat qiladigan barcha o‘rinlarda tarjimon me’yorni bilishi va juda katta sezgirlik bilan ish tutishi lozim. Shundagina badiiy jihatdan katta qimmatga ega bo‘lgan tarjima asarlari yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдулазиз Мансур. Куръони карим маъноларининг таржимаси. –Т., 2001. 386
2. Ғофур Ғулом, Шум бола. –Т. 1983
3. Гафур Гулям. Озорник. –Т. 1983
4. Мусаев Қ, Таржима назарияси асослари: –Т.: Фан нашриёти, 2005
5. Ойбек, Навоий, Ўздавнашр, 1944
6. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари, –Т. Ўқитувчи. 1983.
7. أبو الفضل الميداني. مجمع الأمثال. تحقيق محمد محي الدين عبد الحميد. 2. مجلد. – مصر: دار السعادة. 1959. – 462 ص.
8. - محمد إسماعيل، ناصف مصطفى، مصطفى أحمد. معجم الأمثال العربية. – بيروت، MS1992
9. آبيك، نوائى، ترجمة غائب تعمة فرمان، طشقند، ۱۹۷۹.
10. Комил Яшин. Шарқ шеърятининг фидойиси.Таржима санъати. –Т.: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980.
11. Холбекова Б, ШЕЪРИЙ ТАРЖИМА МЕЗОНИ, МАҚОЛА, ЖАҲОН АДАБИЁТИ, 2009, 11-сон.
12. Ан-наъим. Арабча-о‘збекча луг‘ат. – Т.: 2003.

13. Botirovich A. S. TARJIMASHUNOSLIKDA USLUB MUAMMOSINING O'RGANILGANLIGI //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 18. – №. 5. – C. 359-362.

14. Abdunabiyev S. B. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MAQOL VA MATALLARNING O'RGANILISHI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 25. – C. 216-221.

15. Abdunabiev S. B. Terminology in Arabic linguistics //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 285-290.

